

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH
ZARURATI****Shaydullayeva Kamola Shapulatovna***Termiz davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurni shakllantirish zarurati, yuksak salohiyatli yosh pedagog kadrlarni tayyorlash jamiyat kelajagi uchun juda muhim ekanligi xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Professional ta‘lim, bo‘lajak o‘qituvchi, zamonaviy kadr, pedagogik ta‘lim, mutaxassis o‘qituvchi, pedagogik faoliyat.*

So‘nggi yillarda jamiyatda yangi qadriyatlar paydo bo‘ldi: shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishi, o‘zini o‘zi tarbiyalashi va o‘zini o‘zi loyihalashi, ular pedagogikadagi yangi paradigma - shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning asosiga aylandi. Pedagogik faoliyat maydoni sezilarli darajada kengaydi. Pedagogik ta‘limning fan bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan an‘anaviy tizimi hozirgi zamon pedagogik amaliyoti talablarini qondira olmadi. Bu talablarni bajarish uchun esa pedagogik tafakkuri yuksak talaba kadrlarni tayyorlash zamonaviy oliy ta‘limning asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda. Yangi O‘zbekistonda ana shunday istiqbolli rejalarni amalga oshirish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonida oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari quyidagicha belgilab berildi: mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish; oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish; mustaqil ta‘lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta‘lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta‘lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish; gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e‘tiborni kuchaytirish, pedagogik ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta‘lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta‘lim maktablariga xorijiy tillarni o‘zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish va h.k. Demak, mamlakatimizda asosiy e‘tibor pedagog kadrlar masalasiga, ularning pedagogik tafakkurini yuksaltirishga qaratilmoqda. Chunki, bo‘lajak pedagoglar yosh avlodni tarbiyalashda oliy

ta'limda olgan bilim, ko'nikma, malakalariga suyanadi. Xalqaro pedagogik tajribalarga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tafakkurini, kasbiy kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish va ta'limda innovatsion yondashuv va texnologiyalarga asoslangan kasbiy faoliyatni targ'ib qilish, ularda shaxsiy va kasbiy sifatlarni, falsafiy va kasbiy qarashlarni, kasbiy madaniyatni rivojlantirish borasidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik ta'lim yo'nalishlari talabalari o'rtasida pedagogik tafakkurni shakllantirish muammosining dolzarbligi jamiyatning ijodiy fikrlaydigan o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoji va kasbiy pedagogik ta'lim tizimining ushbu jarayonni tashkil etish uchun zarur sharoitlar bilan ta'minlanmaganligi o'rtasidagi hozirgi ziddiyat bilan izohlanadi. Fan va texnikaning hozirgi holatini aks ettiruvchi fundamental ta'lim bo'lajak mutaxassislarning nafaqat birovning tajribasini faol idrok etish, balki intellektual ijodkorlik qobiliyatini ham nazarda tutadi. Zamonaviy universitetlar faoliyati ta'lim va tadqiqot jarayonlarini faol ravishda birlashtirgan holda, aynan shu turdagi ta'limga qaratilgan. Talabaning - bo'lajak o'qituvchining pedagogik tafakkurni egallashga bo'lgan ehtiyoji zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyatining tabiati bilan bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, pedagogik faoliyatning o'ta ijodiy tabiati o'qituvchidan ta'lim jarayonini o'rgana bilishni, uni tashkil etish masalasiga ilmiy nuqtai nazardan yondashishni talab qiladi. Talabalarning pedagogik tafakkurini shakllantirishning muhim sharti - bu pedagogik faoliyatni rag'batlantirish, ya'ni, qiziqishni rag'batlantirish, zamonaviy maktab talablarida tadqiqot ishlariga bo'lgan ehtiyojni asoslash, ushbu ko'nikmalar tizimiga ega bo'lishning nufuzi va kasbiy faoliyatning ahamiyati haqida tushunchalarga ega bo'lish hisoblanadi.

Pedagogik tafakkur tushunchasi keng qamrovli atama hisoblanib, avvalo, tafakkur terminiga to'xtalib o'tish joizdir. Tafakkur yuksak darajadagi bilish psixik jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan voqelikning faol ijodiy aks ettirish va o'zgartirishdan iborat. Tafakkur bevosita idrokda anglanmaydiganlarni ochib beradi; u olamni ahamiyatli aloqalar va munosabatlarda, uning turli xildagi vositalarida aks ettiradi. Tafakkurning asosiy vazifasi real bog'liqliklarga asoslangan zarur aloqalarni vaqt va fazodagi tasodifiy mos kelishlardan ajratgan holda aniqlashdan iborat. Tafakkur jarayonida tasodifiydan zaruratga, ayrimlikdan umumiylikka o'tish sodir bo'ladi. Shunday qilib, tafakkurni voqelikni umumlashtirilgan va vositalangan aks ettirish sifatida ta'riflash mumkin. Bundan tafakkurning muhim belgilaridan biri umumlashtirishdan iboratligi kelib chiqadi. Voqelikni umumlashtirgan holda aks ettirish birgina odam va zamondoshlarining emas, balki, o'tmish avlodlarining ham tajribasini qayta ishlab chiqish natijasidir. Bu tajriba til yordamida og'zaki va yozma nutqda (o'qituvchilar ma'ruzalarida, kitob, darsliklarda va h.k.) ifodalangan. Shuning uchun tafakkur ko'plab odamlar bilimlarini umumlashtiradi.

Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismlil va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi. Tafakkurning ikkinchi muhim belgisi voqelikni analizatorga bevosita ta'sir ko'rsatmay, ko'pchilik hollarda asboblar ko'magida olingan qo'shimcha belgilar yordamida anglanadiganlarni tushunish va namoyon qilish imkonini yaratuvchi vositali tarzda aks ettirishdir. Hodisalarning qonuniyatlari, ichki aloqalari bizning ongimizda hodisalarning tashqi

belgilarida vositali tarzda namoyon bo'lishi bilan inson ichki, barqaror o'zaro aloqalarning belgilarini aniqlab oladi.

Tafakkurning o'ziga xos xususiyati bilish yoki amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan u yoki bu vazifani bajarish bilan bog'liqligidan iborat. Tafakkur muammoli vaziyatdan, tafakkurning maqsadi bo'lgan savolga javobdan boshlanadi.

Tafakkur muammosini ko'rib chiqqan a.a.smirnov tafakkur va aqliy jarayonlarning assotsiativ tarzda kechishini tafovutlash zaruriyati haqida ogohlantirgan edi. Gap shundaki, aqliy faoliyatda biz assotsiatsiyalardan keng foydalanamiz, chunki ular tafakkur masalalarini echishda ahamiyatli yordam ko'rsatadi. Aqliy jarayonlarning assotsiativ kechishida holat o'zgacha bo'ladi. Muhim tafovut shundan iboratki, bu vaziyatda o'z oldimizga hech qanday maqsad qo'ymaymiz, chunki hech qanday vazifani bajarmaymiz. Bunda bir jarayon ikkinchisi bilan almashadi, chunki ular bir-biri bilan assotsiativ tarzda bog'langan bo'ladi. Tafakkur jarayonlarining assotsiativ tarzda kechishi ko'p hollarda inson toliqqan bo'lib, hordiq olishni xohlayotganida kuzatiladi. Uyquga ketishdan oldin xayolingizdan ketma-ket turli xildagi o'ylar o'tishini kuzatgansiz. Mana shu o'ylar ma'lum assotsiatsiyalarga kiradi.

Tafakkurning alohida muhim o'ziga xos xususiyati - bu uning nutq bilan uzluksiz aloqasi. Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto, nutq tovush shakliga ega bo'lmagan holat, masalan, kar-soqov odamlarda ham nutq shakliga mujassamlashtirilishida o'z ifodasini topadi. Biz doimo so'zlar orqali fikr yuritimiz. Qisqartirilganlik, muxtasarlik, ixchamlilik xususiyatiga ega bo'lgan yashirin, tovushsiz, ichki nutq insonning tafakkur mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Nutq tafakkur quolidir. Ma'lum fikr so'zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so'z bilan ifoda etish - ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomondan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo'lgan murakkab jarayon. Tafakkur - bu narsalar mohiyatini ochib beruvchi g'oyalar harakati. Uning natijasi obraz emas, balki ma'lum bir fikrdir. Tafakkur - bu kiritilgan yo'nalishli-tadqiqiy, qayta o'zgarishli va bilish xususiyatiga ega bo'lgan harakatlar va muolajalar tizimini taxminlovchi alohida turga ega bo'lgan nazariy va amaliy faoliyat. Tafakkur moddiy olam qonuniyatlari, tabiat va ijtimoiy-tarixiy hayotdagi sababiy-oqibat aloqalari, insonlar psixikasi qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Aqliy faoliyat natijalarini qo'llash sohasi bo'lgan amaliyot tafakkur faoliyatining manbai bo'lib xizmat qiladi. Tafakkur psixik faoliyat sifatida miyaning vazifasi hisoblanadi. Oddiy psixik jarayonlar, masalan, sezgilar uchun asos vazifasini o'taydigan yuqoriroq darajadagi miya jarayonlari tafakkurning fiziologik asosini tashkil etadi. Lekin hozirda tafakkur jarayonini ta'minlovchi barcha fiziologik tuzilmalarning o'zaro ta'sir etish tartibi va ahamiyati haqida aniq fikr mavjud emas. Tafakkur faoliyatida miya peshona qismlari alohida ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir. Bundan tashqari, bosh miya po'stlog'ining tafakkurni gnostik (bilish) vazifasi bilan ta'minlovchi doirasi, shuningdek, tafakkur jarayonini ta'minlovchi miya nutq markazlari ham katta ahamiyatga ega. Tafakkur quyidagi asosiy qonuniyatlarga bo'linadi:

1. Tafakkur muammoni hal etish bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi; muammoli vaziyat yuzaga kelish sharoiti vazifasini o'taydi, u boshlang'ich ma'lumotning taqchilligi, sub'ektning aqliy faolligi yordamida engib o'tish zarur bo'lgan ma'lum bilish to'siqlari, qiyinchiliklarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi.

2. Tafakkurning asosiy mexanizmi, uning umumiy qonuniyati sintez orqali tahlil qilish: ob'ektni boshqa ob'ektlar bilan taqqoslash vositasida unda yangi xossalarni ajratish hisoblanadi; shunday qilib, «ob'ektdan, yangi mazmun yig'ib olinadi, u har safar o'zining boshqa tomonlari bilan o'girilgandek bo'ladi, unda yanada yangi xossalar namoyon bo'ladi».

3. Tafakkurning asoslanganligi: har bir dalil, har bir hodisa o'tmishdagi dalillar va hodisalar asosida tayyorlanadi. Hech bir narsa etarlicha asossiz sodir bo'lmaydi. Etarlicha asoslash qonuni inson fikrining har bir mulohazada o'zaro bog'langan bo'lishini, birining ikkinchisidan kelib chiqishini talab etadi. Har bir xususiy fikr umumiyroq fikr bilan asoslangan bo'lishi kerak.

4. Selektivlik (lot. – tanlash, tanlanish) – ma'lum vaziyat uchun zarur bo'lgan bilimlarni tanlash, barcha imkoniyatga ega bo'lgan holatlarni chetlab o'tgan holda ularni muammoni hal etishga safarbar qilish.

5. Antitsipatsiya (lot. – oldindan sezish) voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, oldindan sezishni bildiradi. Inson voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, ularning natijalarini bashorat qilish, muammo echimining ehtimolligi chizmasini tasavvur qilish qobiliyatiga ega.

6. Tafakkur refleksivligi. Fikrlovchi sub'ekt doimiy refleksiya holatida bo'ladi, o'z mulohazalarini aks ettiradi, ularni tanqidiy baholaydi, o'zini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. Refleksiya deb sub'ektning o'zini aks ettirishi bilan birga muloqotda bo'ladigan sheriklarini ham o'zaro aks ettirishga aytiladi.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatda inson faoliyatining asosiy sohalari uchun mutaxassislarni tayyorlash vazifasi alohida dolzarblik kasb etadi. Mutaxassisning faoliyati ijrochi va tor mutaxassis shakllarida namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchi kasbiy mehnat sub'ekti sifatida, ijrochidan farqli o'laroq, faoliyatining maqsadlarini, ularga erishish yo'llari va vositalarini belgilaydi va uni amalga oshirish oqibatlari uchun javobgardir. Mutaxassisdan farqli o'laroq, o'qituvchi faoliyatga bir butunlik sifatida egalik qiladi, turli amaliy vaziyatlarda uning ob'ektivligini saqlaydi, faoliyatni qurish, uni o'zgartirish va rivojlantirishga qodir bo'ladi.

Yangi ijtimoiy-pedagogik sharoitlarda professional pedagogik tafakkurga ega o'qituvchi talab qilinadi. Mutaxassis o'qituvchidan farqli o'laroq, professional o'qituvchi, birinchidan, ilmiy bilimlar va uni uzatish usullari majmuining tashuvchisi emas, balki pedagogik faoliyatning sub'ekti hisoblanadi; ikkinchidan, u nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish, balki inson qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan shaxs; uchinchidan, u didaktik muammolarni qo'yish va hal qilish bilan cheklanib qolmasdan, ta'lim jarayonlari bilan amaliy ishlay oladi, rivojlanayotgan o'quv metodikalarini faoliyatida qo'llay oladi[4]. Ushbu tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tafakkuri kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan. Kasbiy kompetentsiya pedagog o'qituvchining butun o'quv faoliyati jarayonida shakllansa-da, oliy ta'limda yetakchi professional kompetentsiyalardan biri sifatida uning pedagogik tafakkurini shakllantirish asosiy o'rinda turadi. Har bir oliy ta'lim muassasasida iqtidorli, ba'zan tug'ma iqtidorli talabalar bor. Ular bilimga chanqoqligi bilan boshqalardan tubdan farq qiladi[6]. Ushbu talabalarda pedagogik tafakkur yuksak shakllanadi. Shunday qilib, ushbu maqola kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik tafakkurini samarali shakllantirish uchun nazariy va uslubiy vositalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Pedagogik tafakkur inson rivojlanishini boshqarishning kasbiy muammolarini hal qilishga qaratilgan, cheksiz xilma-xil bo'lgan va odamlarning yoshi, tajribasi, ijtimoiy mavqeiga

qarab o'ziga xoslik bilan ajralib turadigan kognitiv jarayonlar majmui sifatida belgilanadi. Ya'ni pedagogik tafakkur pedagogik hodisalarni anglash faoliyati bo'lib, ob'ektiv dunyoni tushunchalar, mulohazalar, xulosalar ko'rinishida aks ettirishning faol jarayonidir. Pedagogik tafakkur ta'lim-tarbiya jarayonining mohiyati, pedagogik faoliyat maqsadlari, ularga erishish yo'llari va vositalari to'g'risida bo'lajak o'qituvchiga alohida ma'suliyat yuklaydi. Tafakkur ongsiz, "avtomatik" holatda, mahorat darajasida, ayrim oddiy va standart pedagogik masalalarni yechish jarayonida shakllanishi mumkin. Pedagogik tafakkur ta'lim jarayonlarini aks ettirishning ideal shakli sifatida o'ziga xos ma'noga ega emas. Uning mazmuni turli xil pedagogik faoliyat, tarkibiy qismlarni tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, tasniflash, ekstrapolyatsiya qilishdir. Pedagogikada fikrlash qobiliyati deb ataladigan ko'plab qobiliyatlar mavjud. Misol uchun, fan matnlari va raqamli o'quv dasturlari materiallari muammoni hal qilish, qaror qabul qilish, tadqiqot qilish, xulosa chiqarish, bashorat qilish, fikrlash, vizualizatsiya qilish, moslashtirish va aks ettirish kabi ko'plab "ko'nikmalar" ni aniqlaydi[9]. Shuning uchun ilmiy, pedagogik tafakkur faqat ideal shaklda mavjud bo'lishi mumkin emas. Tafakkurning mohiyati pedagogik jarayonning elementlari - ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish va o'quv faoliyatining o'zaro bog'liqligidan iborat. Pedagogik tafakkurning vazifalari turli pedagogik muammolarni va murakkab pedagogik vaziyatlarni hal qilishdan iborat. Shunga ko'ra, tafakkur harakatining predmeti pedagogik holat, hodisa, harakatdir.

Pedagogik tafakkurning eng tanqidiy elementlari pedagogik tafakkur bilan bir qatorda mavjud bo'lgan turli vaziyatlarda ham uchraydi, chunki u o'zaro ta'sir qiluvchi tizimni tushunishga, shartlar majmuini, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishga va pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan[2]. Pedagogik tafakkurning paydo bo'lishi qadimgi davrlarga borib taqaladi va o'sha davrlarda ham pedagoglar bizning zamondoshlarimiz kabi aqliy operatsiyalarni bajarishgan.

Zamonaviy jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar kasbiy pedagogik tayyorgarlikni yangi bosqichga ko'tarish zarurligini belgilaydi. O'qituvchilar malakasini oshirishni ta'minlovchi muhim me'yoriy hujjatlar o'qituvchilar tayyorlash tizimidagi sifat o'zgarishlarini, ularning ijodiy tafakkurini shakllantirishda dolzarbligini tasdiqlaydi. Ijodiy o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj butun dunyoda dolzarb masala hisoblanadi. Bir qator mamlakatlarda "kasb ichida va tashqarisida ko'plab munozaralar va harakatlar mavjud bo'lib, ular o'qituvchilarni ijodiy o'rganishda qanday qo'llab-quvvatlash va yoshlar ijodini rivojlantirishga e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi"[3]. Shunday qilib, jamiyat kasbiy muammolarni hal qilishning yangi usullarini topa oladigan, talabalar shaxsiyatining ehtiyojlariga javob beradigan, ijodiy g'ayratli va nostandart yechimlarni topishga qodir bo'lgan, pedagogik tafakkuri yuksak o'qituvchiga muhtoj. Biroq, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik tafakkurni rivojlantirishni tashkil etish kasbiy ta'lim, shuningdek, ushbu muammoni hal qilish uchun didaktik shart-sharoitlar bilan yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmaydi. O'qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish ko'p jihatdan ularning kasbiy tayyorgarligi sifatiga, shu jumladan ijodiy fikrlashni shakllantirishni o'qituvchilar tayyorlash vazifalariga jalb qilishga bog'liq. Talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda o'quv jarayoni katta amaliy va nazariy ahamiyatga ega. Agar o'quv jarayonida talaba mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatilsa, u murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa oladi[5]. Oliy ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik tafakkurni shakllantirish ularning ijodiy salohiyatini samarali

ro'yobga chiqarishga, kelajakdagi kasbiy faoliyatida yuksak ijodkorlik darajasiga erishishga xizmat qiladi. Zero, dunyo "umumbashariy baxt va quvonchni targ'ib qilishni to'xtatmagan va ular uchun kurashishdan charchamagan" odamga ta'zim qiladi[7]. Oliy ta'lim muassasasining (OTM) ta'lim muhitida talabalarning ijodiy fikrlashini shakllantirishning maqsadli jarayonini tashkil etish zamonaviy ta'lim holatini o'rganish, bo'lajak o'qituvchilar ijodiyotini shakllantirishning haqiqiy darajalarini aniqlash va ta'sir qiluvchi shartlar va omillarni aniqlash murakkab jarayon hisoblanadi. Shunday qilib, tadqiqot obyekti pedagogik mutaxassislik talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirishning umumiy darajasini aniqlash va ularning ijodiy darajasiga universitetda o'qish jarayoni va ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi kabi omillarning ta'sirini aniqlashga qaratilgan. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida shiddat bilan amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi vazifalarning strategik yo'nalishi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar, o'qituvchining pedagogik jarayonga ob'ektiv, haqqoniy yondasha olishi, uning o'qituvchilar hulq-atvorini jamoa oldidagi xizmatlariga muvofiq baholay olishdagi axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniq belgilaydigan mutaxassis kadrlarning masalalariga qaratilganligi bilan ifodalanadi[1]. Oliy ta'lim muassasasining vazifasi faqat talabalarga bilim berish emas, ular ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni kata-katta loyihalarga jalb etishi kerak. Mamlakatimizda ta'lim tizimidagi islohotlarning natijalari albatta bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tafakkuri qay darajada shakllanganligiga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. "O'zbekiston". Toshkent, 2022. -B. 218.
2. Borodina T. Developing Creative Thinking in Future Teachers as a Topical Issue of Higher Education. *Sosyal Bilgiler Egitimi Araştırmaları Dergisi*. 2019:10 (4), 226-245
3. Kalmykova, Z.I. Productive thinking as the basis of learning. Moscow, Russia: Pedagogy. 1981.
4. Kireev, B., Zhundibayeva, A., & Aktanova, A. Distance learning at higher education institutions: Results of an experiment. *Journal of Social Studies Education Research*, 10(3), 2019. - P.387-403.
5. Olimov Sh.Sh. The differentiation of education is an important factor of pedagogical technology. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 8 No. 11, 2020 Part II. - P.162.
6. Shaydullayeva K.Sh. Technology of identifying talented young people. *TJE -Tematics journal of Social Sciences*ISSN 2277-3010, Vol-8-Issue-3, 2022. - P. 167.
7. Shaydullayeva K.Sh. Y.A.Komenskiy pedagogik qarashlari xususida mulohazalar. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. VOLUME 1, ISSUE 9, ISSN 2181-1784. - B. 327.
8. Konstantinov N.A., Medinskiy E.N., Shabaeva M.F. *Pedagogika tarixi*. M., 1982 yil.
9. Philip L. Balcaen. The Pedagogy of Critical Thinking: Object Design Implications for Improving Students' Thoughtful Engagement Within E-learning Environment. *US-China Education Review B* 3 (2011) 354-363 Earlier title: *US-China Education Review*, ISSN 1548-6613. - P. 357.

10. Balcaen, P. L. Developing critically thoughtful, media-rich lessons in science: process and product. *International Journal of E-Learning*, 6(3), 2008. – P. 106-170.